

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE PERSONNEL POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE SYSTEM OF INTERNAL AFFAIRS BODIES

Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li

Senior Inspector of the MMI and KBTX of the
Jizzakh Regional UVD, Captain

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of spiritual and educational activities in the personnel policy of the Republic of Uzbekistan and their impact on the functioning of the system of internal affairs bodies. The study examines the importance of spiritual and educational work in shaping professional training, moral and ethical qualities, legal awareness, and professional culture of internal affairs officers. Particular attention is paid to strengthening service discipline, fostering intolerance toward corruption, and enhancing patriotism and professional responsibility among personnel. Based on an analysis of current legal regulations and ongoing reforms, the article presents scholarly conclusions and practical recommendations aimed at improving the personnel management system within internal affairs bodies.

Keywords: personnel policy, spiritual and educational activities, internal affairs bodies, legal awareness, service discipline, professional competence, moral education, public administration.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI

Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li

Jizzax viloyati IIB MMI va KBTX
katta inspektori kapitan
Email: islom1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida kadrlar bilan ishlash siyosatida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning o'zni va ahamiyati hamda ushbu jarayonlarning ichki ishlar organlari tizimi faoliyatiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, axloqiy fazilatlar, huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlarning vatanparvarlik ruhini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligi yoritiladi. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, sohadagi islohotlar va ularning amaliy natijalari tahlil qilinib, kadrlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: kadrlar siyosati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ichki ishlar organlari, huquqiy ong, xizmat intizomi, kasbiy kompetensiya, ma'naviy tarbiya, davlat siyosati.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N47>

Kirish. Jahonda yuz berayotgan globallashuv, xalqaro aloqalardagi integratsiya jarayonlari, qadriyatlar evolyutsiyasi va ulardagi transformatsiya holatlari davlatlar, siyosiy partiyalar qarashlari, insonlar dunyoqarashiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Yer yuzida yalpi tinchlikni saqlash, urushlar oldini olish, adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish, aholi soni

va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi o'rtasida mutanosiblikka erishish kabi umuminsoniy muammolar hajmi oshib bormoqda. Insonlarning tafakkuri, ongi va dunyo qarashini egallashga urinishlar aynan ma'naviyat maydonida sodir bo'lmoqda. Endilikda boshqa hudud va xalqlarni o'ziga qaram qilish uchun ochiq ko'rish va sezish murakkab bo'lgan usul va vositalar, xususan ma'naviy buzg'unchilik metodlaridan foydalanilmoqda.

Jahondagi ko'plab ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ichki ishlar organlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'limlarining faoliyatini tashkiliy-huquqiy ta'minlash, ichki ishlar idoralari xodimlarining qadriyatlariga qarshi qaratilgan ma'naviy tahdidlar muammolarini o'rganish bo'yicha izchil tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ana shunday jiddiy global muammolar qatorida ayniqsa, barqaror tinchlik va xavfsizlikni saqlash hamda insoniyat ma'naviy muhiti sofliqini saqlash masalalari ustuvor muammo sifatida ko'rib chiqilmoqda. Ichki ishlar idoralari xodimlarining joylarda mafkuraviy kurashlar, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan murakkab, tahlikali bir davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talabi asosida tashkil etishi va uning targ'ibotida faol ishtirok etishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.[1,5]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kadrlar siyosati – bu davlat, tashkilot yoki muassasaning inson resurslarini shakllantirish, rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha olib boriladigan uzluksiz, tizimli faoliyatidir. U jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlaydigan, yuqori malakali, fidoyi va mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlash, joy-joyiga qo'yish hamda ularning malakasini oshirishni ko'zda tutadi. Kadrlar siyosatining mohiyati – inson omilini boshqaruv jarayonining markaziga qo'yish, ya'ni "inson resurslari" ni strategik kapital sifatida shakllantirishdan iborat. Ta'kidlash lozimki, davlat boshqaruvi tizimida kadrlar siyosati markaziy o'rinni egallaydi, chunki har qanday islohot, dastur yoki qarorlarni amalga oshiruvchi kuch – bu inson resurslari, ya'ni kadrlarning o'zidir. Kadrlar siyosati o'z navbatida davlat boshqaruvida quyidagi vazifalarni bajaradi, ya'ni malakali va halol kadrlar orqali samarali boshqaruvning ta'minlanishi davlat organlari faoliyati sifatini oshiradi, davlat xizmatining barqarorligini ta'minlanishi tizimda professionalizm, sadoqat va barqarorlikni mustahkamlaydi, islohotlarning muvaffaqiyatini kafolatlaydi, chunki kadrlar tayyor bo'lmasa, eng yaxshi islohot ham samara bermaydi, davlat imijini shakllantiradi – davlat xizmatchilarining madaniyati, odobi va malakasi bevosita davlat nufuzi bilan bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi ichki ishlar idoralariga yuksak malakali, professional kadrlar tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalari ichida o'ziga xos o'ringa ega. Eslatib o'tish o'rinliki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasini tashkil etish to'g'risida"gi 1994 yil 2 sentyabrdagi 447-sonli Qarori bilan ichki ishlar organlari va bo'linmalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash va boshliqlar tarkibi xodimlarining malakasini oshirish maqsadida ushbu Akademiya tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mustaqillikdan so'ng bu yo'nalishda mamlakatimizda bir qator muhim hujjatlar va dasturlar qabul qilindi. Xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqib, yoshlarni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari etib tarbiyalash maqsadida 1997 yilning 29 avgustida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur noyob hujjatlarda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilanib, har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqi ta'minlanishi nazarda tutildi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – ta’lim tizimini tubdan isloh qilish orqali zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Milliy dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o’zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni maqsad qilib qo’ydi.

Aytish joizki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida yurtimizda o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi shaklidagi noyob tizim shakllantirildi. Qonun qabul qilingandan so’ng respublikamizda yangi tipdagi 1537 ta o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasi qurilib ishga tushirildi. Birgina 1998-2011 yillar mobaynida o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi dargohlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o’quv-laboratoriya jihozlari va kompyuter texnikalari bilan ta’minlashga davlat byudjeti mablag’lari hisobidan 132, 1 mlrd. so’mga yaqin mablag’ ajratildi. Keyingi o’n yil davomida xorijiy investitsiya loyihalari doirasida salkam 234 mln. 600 ming AQSh dollari miqdoridagi mablag’ o’quv-laboratoriya va ustaxona jihozlarini xarid qilishga yo’naltirildi. Natijada 1616 nomdagi 7 mln. nusxada nashr etilgan darslik va qo’llanmalar, 131 nomdagi elektron darslik o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi bazasida tashkil etilgan axborot-resurs markazlariga yetkazib berildi.

Natijalar. Jaholatning har qanday diniy, siyosiy, dunyoviy yoki dahriylik ko’rinishlariga qarshi ma’rifat – “ilm orqali ma’rifat” tamoyili asosida kurash olib borish g’oyasiga aytiladi. Ta’kidlash lozimki, necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o’zligimizning ajralmas qismi bo’lgan muqaddas dinimizni asrash, ajdodlarimizdan qolgan bebaho ma’naviy-ma’rifiy merosni o’rganish va targ’ib qilish davlatimiz uchun o’ta dolzarb vazifa hisoblanadi. Globallashuv davrida mustaqil O’zbekistonning “Jaholatga qarshi – ma’rifat” g’oyasi asosida dunyoda tinchlik va osoyishtalikni saqlash, islom dinining insonparvarlik mohiyatini xalqimiz va jahon ahliga etkazish borasidagi tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda.

Jadidchilik harakatining buyuk namoyandasi Abdulla Avloniyni, “Ma’rifatli xalq shijoatli bo’lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo’lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, af’oli zamirida ham o’z nafsining yoqasini bo’shata olmas...Zeroki, jaholat eng qo’rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdir”, degan dono fikrlari bor.

Huquq – arabcha so’zdan olingan bo’lib, huquqiy, huquqiy asoslanganlik, adolat va qonuniylikka oid kabi ma’nolarni anglatadi. Huquq shaxsga tabiat, jamiyat, davlat tomonidan beriladigan o’z harakatining turi va me’yorini tanlab olish imkoniyatidir.

Bizga ma’lumki, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilishda rivojlangan davlatlar konstitutsiyashunosligining ilg’or tajriba va yutuqlaridan keng foydalanildi. Natijada bu usul uning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirish barobarida sifat darajasini ham yanada oshirdi. Uni yaratishda xalqaro huquqning umum e’tirof etgan normalariga qat’iy asoslanilgan. “O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, – degan edi taniqli professor R.Qayumov, – xalqaro huquq qoidalari va prinsiplarining ustunligini tan oladi. Shu asosda O’zbekiston boshqa mamlakatlar bilan to’la ishonchli negizda ham ikki tomonlama, ham ko’p tomonlama tashqi siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlarni o’rnatmoqda”. Asosiy qonunimiz dunyoning ilg’or tajribasi bilan birgalikda, o’zbek xalqining boy tarixiy va milliy, ma’naviy va huquqiy qadriyatlarini mujassam uyg’unlashtirgan. Uning har bir moddasida asrlar mobaynida shakllangan ma’naviy merosimiz, milliy g’oya va sharqona qadriyatlar aks etgan.

Shu o'rinda inson va uning hayoti oliy konstitutsiyaviy-huquqiy qadriyat ekanligiga e'tibor qaratishimiz joizdir. Yashash huquqi insonning barcha huquq va erkinliklarining poydevorini, dastlabki asosini tashkil qiladi. Ushbu huquq insonning eng asosiy huquqi, hayot kechirishining kafolatidir. Inson hayoti benazirdir. Konstitutsiyamizga ko'ra, davlat inson yashashi uchun munosib shart-sharoitni yaratib berishi zarur. Davlat shaxs hayoti va qadriyatini muhofaza qilishi shart. Yashash huquqini ta'minlash uchun davlat idoralari va jamiyat strukturalarining keng ko'lamli, serqirra faoliyati talab qilinadi.

Bugun Yer yuzining qaysidir burchagida urush olovi yonib, yana qayerdadir terrorchilik harakati avj olgani, yana bir joyda o'zaro nizolar qurolli to'qnashuvga aylanayotgani haqida tahlikali xabarlar kelib turibdi. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlaridan yurtimizda barqarorlikni mustahkamlash, xalqimiz tinch-totuv yashashi, ishlashi uchun kecha-yu kunduz hushyorlik bilan xizmat qilishlarini, har qanday tajovuz, nojo'ya harakatlarning oldini olishga tayyor turishlarini talab etadi.

Ma'lumki, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yurt ravnaqi va rivojiga munosib hissa qo'shish uchun olib borayotgan harakatlarimiz izchil davom etmoqda. Jumladan, ichki ishlar organlarida ham xizmat samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligiga erishishda xalqimizning ishonchli qalqoniga aylanish uchun amaliy harakatlar ketmoqda.

Ichki ishlar organlarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyati organ xodimlari orasida ularning ruhiy va ma'naviy holatini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Bu faoliyat turi IIO xodimlarining motivatsiyasini oshirish, xodimlarning qarashlarini tahlil qilish hamda ularning zamonaviy muammolarga qarshi turishi uchun xizmat ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradi.[3,10]

Muhokama. Adolat ustuvorligi ayniqsa ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatida muhim o'rin tutadi. Odillik, masalaga qonun ustuvorligi nuqtai nazaridan xolis yondashish, haqiqatni bosh mezon deb bilish, shu yo'lda beminnat xizmat qilish adolat tamoyilining asosini tashkil qiladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda inson, uning huquq va manfaatlarini oliy qadriyat sifatida ro'yobga chiqarish borasida, shu jumladan, ichki ishlar idoralarining sohaviy xizmatlarida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki, ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyatida adolatsizlikka yo'l qo'yilishi, ijtimoiy muhitning buzilishiga va aholining adolatga bo'lgan ishonchi yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Ma'naviyat borasida amalga oshiriladigan ishlar xodimlar qalbida mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab xislat va fazilatlar uzviy, mushtarak holda shakllantirsa, ma'rifiy ishlar ularning ongiga muayyan bilimlar, g'oyalar, e'tiqod va iymon, axloq va odob normalarini singdiradi, ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhini tarkib toptiradi.

Xodimlarning ish faoliyatidan tashqari holatda ham olib borgan ma'naviy-ma'rifiy ishlari ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy bilimlari va o'z faoliyatlari samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zero, ma'naviy — ma'rifiy ishlarini amalga oshirishda malakali xodimlar bilan bir qatorda yosh xodimlar murabbiylarining ishtiroki ta'minlanadi. Ichki ishlar organlari tashkiliy-huquqiy ta'minot bilan birgalikda ma'naviy — ma'rifiy ishlar bo'linmalarini ham tashkil etishlari lozim bo'ladi. Bunday sa'y-harakatlar organ xodimlarining o'zaro aloqalarini kuchaytiradi, ularning ma'lumot va ko'nikmalar almashishiga imkon beradi. Faoliyatni tashkiliy-huquqiy ta'minlash ichki ishlar organlari faoliyatining qonuniy asosini

ta'minlaydi. Shu asosda ichki qoidalar va to'g'ridan-to'g'ri amallar bo'yicha amalga oshiriladigan jarayonlar belgilanadi.

Bunday qoidalar va amallar xodimlar uchun yagona qonuniylik ramzi hisoblanadi. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'linmalarini tashkil etish esa xodimlarning ruhiy holatini kuchaytiradi. Bu esa bo'linmada xodimlarga yangi bilimlar olib kelish, ochiq muloqotda bo'lish va rag'batlantiruvchi tadbirlarda ishtirok etish imkoniyatini tuhfa qiladi. Bunday usullar ichki ishlar organlari xodimlarining ijobiy tomonlarini kuchaytirishi mumkin. Ushbu faoliyatning hammasi qonuniy asosda amalga oshirilishi kerak, shuningdek, xodimlarning ruhiy holatini kuchaytirish maqsad qilib olinishi lozim. Bunday yondashuv ichki ishlar organlarining tashkiliy tarzidagi faoliyatini samarali ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida kadrlar bilan ishlash siyosatini izchil amalga oshirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlar muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil etish xodimlarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ularning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish, shuningdek, xizmat intizomini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Maqolada tahlil qilinganidek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ichki ishlar organlari xodimlarida vatanparvarlik, sadoqat, mas'uliyat va halollik kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholining davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, kadrlar bilan ishlash jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy pedagogik va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, xodimlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash zarurligi asoslab berildi. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda ushbu yo'nalishda tizimli monitoring olib borish ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlar O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ichki ishlar organlari tizimida professional, mas'uliyatli va yuksak ma'naviyatga ega kadrlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish soha rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov O. Kadrlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar: ilmiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2015. – 120-b.
2. Rasulov Sh. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish. – Toshkent: Huquq, 2018. – 95-b.
3. Abdullayeva N. Ma'naviy tarbiya va kasbiy kompetensiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 150-b.
4. Mirzaev A. Ichki ishlar organlarida xodimlarni tayyorlash tizimi. – Jizzax: IIB nashriyoti, 2017. – 80-b.
5. Sultonov T. Kadrlar bilan ishlash siyosati va davlat boshqaruvi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016. – 110-b.
6. Islomov R. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning pedagogik asoslari. – Toshkent: Pedagogika, 2019. – 130-b.

7. Petrov V. Moral and ethical education in law enforcement agencies // Journal of Public Administration. – 2018. – Vol. 5, №2. – P. 45–52.
8. Ivanova L. Professional competence and spiritual education in internal affairs systems // International Journal of Law and Society. – 2020. – Vol. 12, №3. – P. 112–120.
9. Smith J. Personnel policy and moral education in law enforcement: global perspectives. – London: Routledge, 2021. – 200-p.
10. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi. Kadrlar bilan ishlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy yo'riqnoma. – Toshkent: IIV, 2022. – 75-b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).